



## VIRTUAL JAMOADA ISHLASH KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI

**O.A.Sodikova**

*ADPI, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

Bugungi globallashuv davrida axborot tarqatish nihoyatda zamonaviy qiyofaga kirdi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Raqamli asr bizning ishlash va o'rganish uslubimizda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Odamlar ish kunini internetdan boshlab u bilan tugatadigan bo'lib qoldi.[1]Agar avvalgi davrga nazar tashlaydigan bo'lsak yoshlarimizning eng sevimli va qiziqqan mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar tomosha qilish bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib yoshlarimizni sevimli mashg'ulotlari kompyuter va internet bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha oliy ta'lim, kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha tashkil qilingan ta'lim muassasalari va ularda yoshlarning bilim olishlari hamda kasb-hunar o'rganishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlarga qarab, havas qilasiz. Shuni bilamizki, hayotimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lmish internetdan barcha yoshlarimiz keng foydalanib kelmoqda.

Talabalar orasida internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirishni hozirgi kunning eng global muammolaridan biri, deb hisoblayman. Internetdan foydalanish kerak, albatta. Hozirgi kunda bu zamon talabi, davr talabi hisoblanadi, lekin undan, avvalo, to'g'ri va o'rinli foydalanishni shakllantirishimiz kerak. Internet orqali har xil qo'shimcha ma'lumotlar olish, kerakli adabiyotlarni qidirib topish, til o'rganish, yangi axborotlardan xabardor bo'lish mumkin.

Buyuk allomalardan biri "Hayot vaqtlardan iborat. Kimki vaqtini bekor o'tkazsa, hayotini behuda sovradi", degan edi. Demak, bugungi kundagi eng muhim vazifamiz o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi va vataniga mehr va sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni har xil ommaviy madaniyat xurujlaridan asrash hamda munosib himoya qilishdan iboratdir.

Bugun internetdan foydalanuvchilarni shartli ravishda ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagilar kasbi talabidan kelib chiqqan holda yoki ilmiy tadqiqotlari uchun zarur ma'lumot va axborot olish maqsadida internetga murojaat qilayotganlar bo'lsa, ikkinchi toifadagilar shunchaki qiziqishiga ko'ra, deylik, tanishuv saytlariga kirib yoki onlayn o'yinlari bilan kun o'tkazish kayfiyatida bo'lganlardir.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axborot manbaidir.

Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz hizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa bu ta'sir doirasida o'smir yoshlar ham yo'q emas. Bu borada mutahasislarning so'zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli internet axborotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushoxada, taxlil qilish qobiliyati va xotiraning o'tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo'lmoqda.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib kelayotgan turli – tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligini bir tomondan quvonarli bo'lsa – da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Axborot olamida internet davri kelgani, internet-televideniye, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari qanday tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotgani haqida ortiqcha gapirishga zarurat yo'q, deb o'ylayman.

Yillar davomida o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy yuksalishi, axborotga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish, axborot erkinligini ta'minlash maqsadida zarur texnologik sharoitlar va huquqiy kafolatlar yaratildi. Har kimning fikrlash va so'z erkinligi, o'zi istagan axborotni izlashi, olishi, uni tarqatish borasidagi konstitutsiyaviy normalar milliy qonunlarimizda rivojlantirildi. Shuningdek, xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratilishini e'tirof etuvchi normalar qonunlarimizda o'z aksini topdi. Xususan, bugungi kunda axborot sohasida ommaviy axborot vositalari, shundan televideniya, Internet-kafelar, Internet



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

provayder, davlat axborot resurslari, "ZiyoNET" yoshlar axborot portali va axborot-kutubxona muassasalari faoliyat yuritmoqda. Internetdan foydalanuvchilarning soni esa to'qqiz milliondan ortib ketdi. Bularning barchasi fuqarolarimiz, xususan, yoshlarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqining ifodasidir.

Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari o'zgarmoqda. Virtual ta'lim texnologiyalari talaba-yoshlarning kognitiv, ijtimoiy, emotsional, ma'naviy rivojlanishiga ijobiy tasir etadi albatta. Virtual olam real olamga nisbatan insonlarga cheksiz muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. [2]

Talabalar an'anaviy usuldagi har qanday ta'limga qaraganda ancha boy va murakkabroq bo'lgan yangi aloqa vositalari tomonidan yaratilgan "o'ziga xos" bilim maydonida yashaydilar. Axborotlashuv ustuvorliklarining paydo bo'lishi bilan virtual ta'lim asta-sekin o'z-o'zini tarbiyalashga qaytishi mumkin. Multimedia ta'lim mahsulotlarini joriy etish nafaqat ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun o'quv jarayoni bevosita ijtimoiy muassasadan tashqarida, balki "kompyuter bilan" yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin. Virtual ta'lim masofaviy ta'lim bilan chambarchas bog'liq, lekin u bilan cheklanib qolmaydi. U o'qituvchilar, talabalar va o'rganilayotgan ob'ektlarning odatiy yuzma-yuz muloqotida paydo bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayoni sharoitga ko'ra onlayn bo'lsa, har kim bundan biror hikmatni, yaxshilikni izlashi kerak. Ta'limning har qanday turida ikki tomon ishtirok etadi: o'qituvchi va talaba. Maqsad-talabaning biror bir sohada yetuk mutaxassis bo'lib yetishishidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o'quv yurtlarida qo'llash perspektivalari, infoCOM.UZ

2. E. Mo'Minov (2022). VIRTUAL TA'LIM TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA O'QITISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH. Science and innovation, 1 (B8), 742-746. doi: 10.5281/zenodo.7393317

3. Elyor Abdualiyevich Mo'Minov (2022). TA'LIM TIZIMINING VIRTUALLASHUVI -ILMIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA VIRTUAL TA'LIMNI QO'LLASH METODIKASI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (10), 31-36.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

---

4. Quronov M., Jabborov X. Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari. Toshkent. "Muharir nashriyoti". 2017.

5. <https://uz.itpedia.nl/2021/09/12/virtual-teams-and-leadership-behaviour/>